



## ABDURAZZOQ GURNAH NASRIDA ESTETIK SINTEZ MODEL: TASAVVUFİY IZTIROB VA PSIXOLOGIK REALIZMNING BADIY MEXANIZMLARI

Saydamatova Dilafro'z Xamidullo qizi,  
Namangan davlat universiteti II bosqich tayanch doktoranti  
[dilafrozsaydamatova97@gmail.com](mailto:dilafrozsaydamatova97@gmail.com)  
tel: +998908221150

### MAQOLA HAQIDA

**Qabul qilindi:** 9-fevral 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 11-fevral 2026-yil

**Jurnal soni:** 17-B

**Maqola raqami:** 84

**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1546>

### KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ

### СЛОВА/ KEYWORDS

Abdurazzoq Gurnah, psixologik tahlil, ruhiy kechinma, identitet inqirozi, muhojirlik, postkolonializm

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Abdurazzoq Gurnahning badiiy ijodida psixologik tahlilning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Maqolada yozuvchining "Desertion" va "Gravel heart" asarlari misolida qahramonlarning ruhiy kechinmalari, identitet inqirozi, muhojirlik iztiroblari va mustamlakachilik merosi bilan bog'liq ichki kurashlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologik jihatdan psixoanalitik, intertekstual, qiyosiy-tarixiy yondashuvlarga tayangan holda olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Gurnah asarlarida Sharq adabiyotiga xos tasavvufiy iztiroblar va G'arb adabiyotidagi psixologik realizmning o'zaro uyg'unlashuvi kuzatiladi. Ushbu uyg'unlik yozuvchi qahramonlarining murakkab ruhiy dunyosini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda postkolonial adabiyot nazariyasi uchun yangi ilmiy yondashuvlarni taqdim etadi.

**Kirish.** Dunyo adabiyotshunosligida qahramon ruhiyati va ichki kechinmalarini badiiy matn orqali tahlil qilish masalasi qadimdan markaziy estetik muammo sifatida qaraladi. Aristotel "Poetika"da ilgari surgan katarsis konsepsiyasi san'atning inson ruhiyatini larzaga keltirish va ruhiy poklanishga yetaklash imkonini nazariy jihatdan asoslab bergan bo'lsa, Sharq mumtoz adabiyotida bu hodisa, ayniqsa, tasavvufiy iztirob va ma'naviy kamolot g'oyalari bilan uzviy bog'lanadi. Xususan, Alisher Navoiy lirikasida iztirob — faqat fojeiy holat emas, balki ruhni tarbiyalovchi, insonni o'z "men"ini anglash sari olib boruvchi estetik-axloqiy tajriba sifatida poetiklashadi. G'arb adabiy an'anasida esa Shekspir tragediyalaridagi ichki monologlar, Dostoyevskiy romanlaridagi psixologik tahlil hamda James Joyce va Virginia Woolf modernizmidagi "ong oqimi" texnikasi badiiy psixologizm imkoniyatlarini yangi bosqichga ko'tardi.

Zamonaviy ingliz adabiyotida Abdurazzoq Gurnah postkolonial tafakkur doirasida inson ruhiyatini tasvirlashning o'ziga xos badiiy modelini yaratgani bilan ajralib turadi. Uning romanlarida qahramonning shaxsiy iztirobi tasodifiy yoki individual psixologik holat sifatida emas, balki mustamlakachilik merosi, muhojirlik tajribasi, madaniy begonalashuv va identitet inqirozi bilan chambarchas bog'langan ko'p qatlamli ruhiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Gurnah badiiy olamida travmatik xotira, sukut, ayb va kechirim, yo'qotish hamda o'zligini qayta tiklash kabi motivlar qahramon ruhiyatini ochishning yetakchi mexanizmlariga aylanadi. Ayniqsa, muallif tasvirida Sharqqa xos tasavvufiy iztirob poetikasi bilan G'arbga xos psixologik realizm usullari o'zaro uyg'unlashib, qahramon ichki dunyosini tahlil qilishda estetik sintezga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada Abdurazzoq Gurnahning "Gravel Heart (Toshyrak)" va "Desertion (Qochqinlik)" romanlari misolida qahramonlar ruhiy kechinmalarini badiiy talqin etishning asosiy yo'llari yoritiladi. Xususan, romanlarda psixologik tahlilning narrativ va lingvopoetik vositalari, ichki konfliktini ochish mexanizmlari hamda Sharq va G'arb adabiy an'analari bilan badiiy-estetik uyg'unlik masalasi ilmiy jihatdan izohlanadi. Shu asosda Gurnah nasrida ruhiy kechinmalar tasviri postkolonial subyektning ichki tajribasini anglash va talqin qilishga xizmat qiluvchi konseptual-estetik model sifatida baholanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Gurnah asarlari ruhiy kechinmalarni tahlili jarayonida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Mazkur jarayonda tahlillarga Gurnahning "Desertion" (Qochqinlik) va "Gravel Heart" (Toshyrak) romanlari asos qilib olinib qiyosiy-tarixiy, postkolonial va intertekstual yondashuvlar qamrab olindi.

Sigmund Freyd va Karl Gustavning psixologik nazariyalari Gurnah asarlarini psixologik tahlil qilishda asos sifatida xizmat qilib kelmoqda. Dastlabki tahlillarda ham olimlarning nazariyalariga murojaat etilgan bo'lib ayniqsa psixoanalitik tahlilda buni yorqin aksini topkan. Xususan, "Desertion" va "Gravel Heart" romanida ong va ong osti jarayonlari, identitet inqirozi, repressiya va oilaviy muhit ta'siri muhim o'rin tutadi deb hisoblanadi. Gurnahning asarlarida ushbu nazariy tushunchalar ijtimoiy va madaniy kontekstda kengaytiriladi. Masalan, "Gravel Heart" asaridagi qahramon Salimning ruhiy inqirozi otasining sirli hayoti va oilaviy sovuqlikdan so'ng boshlanadi. "Gravel Heart" romanida Salim otasi bilan yaqinlik o'rnatolmagan bola sifatida tasvirlanadi. Uning bolalik xotiralarida ota doimiy sukut va bepisandlik orqali namoyon bo'ladi.

Asardan olingan quyidagi parchada ota va bolaning o'rtasidagi munosabat va uning farzand shaxsiyatiga ta'siri qay darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin:

*"He never spoke to me directly, as if I was invisible, as if my presence did not matter at all. [U menga hech qachon menga to'g'ridan-tog'ri gapirmasdi. Go'yoki men uning uchun ko'rinmasdekman, balki borligimning ham unga umuman ahamiyat yo'qdir"]*. [7.147]

Asardan keltirilgan mazkur parchani S.Freydning "otaga oid kompleks" ("Oedipus kompleksi") va repressiya (ruhiy bosim) nazariyalari nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. [4] Freyd nazariyasiga ko'ra, "Oedipus kompleksi" tushunchasi bola shaxsiyati rivojida asosiy bosqich sifatida talqin qilinadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, bola ilk bosqichlaridanoq otasi bilan raqobatga kirishadi va buning natijasida onaga nisbatan yaqinlik va muhabbat hissini boshdan kechiradi, bolaning shaxsiy rivojida otaning "superego" sifatidagi ishtiroki muhimdir. Ammo Salimda bu ishtirok yo'qligi sababli, unda doimiy iztirob va begonalashuv paydo bo'ladi.

Quyida "Gravel Heart" romanidan keltirilgan yana bir parcha superego va repressiya tushunchalari bo'yicha tahlil qilinganligini ko'rishimiz mumkin:

*"I lived in a house where silent was a daily torment. My father's presence was like a shadow that weighed upon us, yet he never explained the reason for his distancemen. [Har kuni sukunatga to'la bo'lgan bir uyda yashadim, otamning borligi huddiki bizga soyaga o'xshar edi, ammo hech qachon u o'z sovuqqonligining sababini tushuntirmas edi"]*. [7.65]

Yuqorida asardan keltirilgan parcha psixoanalitik jihatdan tahlil qilinsa, Salim uchun otaning sukunati - nazorat qiluvchi, ammo hech qanday aniqlikka ega bo'lmagan tushunarsiz kuchdir. Bu yerda bola ongida otaning mavjudligi soyaga qiyoslanadi. Bu soyaviy obraz esa superego - tashqi nazorat va ijtimoiy qoidalar ramzi sifatida namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

**Metodologiya.** Tadqiqot psixologik tahlil, intertekstual va qiyosiy-tarixiy yondashuvlarga tayangan holda olib borildi. Asosiy material sifatida Abdurazzoq Gurnahning Desertion va Gravel Heart romanlari olingan. Psixoanalitik yondashuv orqali qahramonlarning ong va ong osti jarayonlari, repressiya, identitet inqirozi va oilaviy muhit ta'siri tahlil qilindi. Intertekstual metod yordamida Sharq va G'arb adabiy an'analari, xususan, Navoiy lirikasidagi tasavvufiy iztirob va Shekspir tragediyalari bilan bog'liqlik ko'rib chiqildi. Qiyosiy-tarixiy yondashuv orqali qahramonlarning shaxsiy kechinmalari kolonial va postkolonial kontekstda tahlil qilindi. Shu tarzda, metodologiya ruhiy kechinmalarni individual, ijtimoiy va madaniy-historik qatlamlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga imkon berdi.

**Natijalar.** Asarda ota o'z his-tuyg'ularini izhor qilmasligi sahnasi bolaning hayotida noaniqlik, shu bilan bir qatorda ruhiy bosimni kuchaytirganligini ko'rsatadi. Ota sevgisi o'rnida izohlanmagan sukut hukmron bo'lishi bola uchun doimiy iztirob va ruhiy beqarorlik manbaiga aylanadi. Bu holat Freyd ta'kidlaganidek, hissiyotlarning ong ostiga surib qo'yilishi - repressiya jarayoniga mos keladi. buning natijasida esa, Salim o'z shaxsiy identitetini shakllantirishda ichki ziddiyatlarga duch keladi. Karl Gustav Jung nazariyasida sukunat "soyaviy arxetip"ni eslatadi. [8] Ota mavjud, ammo uning sukunati qorong'ilik, tushunarsizlik va noaniqlikni

ifodalaydi. Bola ongida bu soyaviy kuch o'zini anglash jarayonini qiyinlashtiradi. Natijada Salim o'z shaxsini "bo'shliq" ichida qurishga majbur bo'ladi. Bu yerda sukunat nafaqat psixologik repressiya, balki adabiy timsolga aylanadi: u ko'rinmas, ammo doimiy nazoratchi kuch sifatida qahramonning taqdirini belgilaydi.

Mazkur parchaga postkolonial nuqtai nazardan qaraganda, sukunat ko'p hollarda siyosiy va tarixiy repressiya ramzi hisoblanadi. Mustamlakachilik sharoitida jamiyat o'z erkidan va erkin fikr bildirishdan mahrum bo'ladi va nutq o'rmini sukut egallaydi. Gurnahning romanidagi sukunat motivi nafaqat shaxsiy fojia balki, butun bir jamiyatning mustamlakachilikdan qolgan jarohatining ham ifodasini ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, Gurnah romanidagi sukunat oddiy oilaviy muhitni emas, balki ko'p qatlamli adabiy va psixologik ramzni ifodalaydi. "Gravel Heart" shaxsiy ruhiy iztiroblarning oilaviy manzarasini chizgan bo'lsa, "Desertion" umumiy ijtimoiy-madaniy muhitning ruhiyatga bosimini yoritadi. "Desertion" romanida bu iztiroblar yanada kengroq — jamiyat va tarixiy kontekst bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Shu bois ikki roman bir-birini to'ldiruvchi holda Gurnahning psixologik tahlil uslubining turfa qirralarini ochib beradi.

"Desertion" romanida Martin Peace va Rehana o'rtasidagi muhabbat jamiyatning qattiq nazorati ostida tasvirlanadi. Bu holat qahramonlarda qo'rquv, yashirinlik va ichki repressiya ruhiy kechinmalarini keltirib chiqaradi. Freydning ta'rifiga ko'ra, inson istaklari va jamiyat qoidalari o'rtasidagi to'qnashuv superego bosimi orqali ong ostiga suriladi. [5]

*"They could not walk freely together, their love was something that had to be hidden, carried like a burden."* ["Ular birga erkin yura olmasdilar, ularning sevgisi yashirilishi kerak bo'lgan, yelkalarda ko'tarilgan yuk kabi edi"]. [7.123]

Ushbu keltirilgan parchada foydalanilgan ruhiy kechinma turi — repressiyalangan sevgi bo'lib, bu turdagi sevgi qahramonlarni fojialar sari yetaklaydi va buning zamirida yozuvchi mustamlakachilik jamiyati sharoitida insoniy istaklarning erkin namoyon qilinmasligi yoki insonlar o'z istaklarini erkin namoyon qila olmasliklarini ko'rsatishni hojlaganligini anglashimiz mumkin.

"Desertion" romanida Rehananing iztiroblari Sharq mumtoz adabiyotidagi ma'shuqa timsoli bilan qiyoslanadi. Gurnahning tasvirida Rehana muhabbatini ochiq namoyon eta olmaydi, uning sevgisi jamiyat tomonidan qabul qilinmaydi. Bu holat Sharq she'riyatidagi "ishqiy jarohat" motiviga juda yaqin turadi: Alisher Navoiy lirikasida ma'shuqaning iztiroblari ko'pincha jamiyatning axloqiy me'yorlari va ilohiy muhabbat ideali bilan bog'liq bo'lgan. Navoiy g'azallarida ishq jarohati oshiqning qalbida dard va iztirobni ifodalaydi:

*"Ko'ngulda dardu g'amim ming, ichra qonli yaralar, Ishaq ahli jarohat ila qildi meni xarob".* [1]

Mazkur bayt oshiqning sevgi tufayli ruhiy jarohatlanganini ko'rsatadi. Navoiyda bu jarohat ko'pincha ilohiy ishqqa yetaklovchi ma'naviy iztirob sifatida talqin qilinadi.

Gurnah esa "Desertion" romanida ishqiy jarohat motivini boshqa kontekstda ishlatadi: Rehananing muhabbati jamiyat tomonidan tan olinmaganligi bois, u yashirin sevgi va sukunat ichida hayot kechiradi. Gurnah Navoiydan farqli o'laroq, Rehananing ichki dunyosida nafaqat shaxsiy fojia, balki ijtimoiy taqiy va ayollarning cheklangan ijtimoiy mavqeini aks ettirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham Gurnah obrazi klassik Sharq adabiyotidagi ma'shuqa motivini eslatadi, ammo uni mustamlakachilik davrining ijtimoiy-madaniy kontekstiga moslashtiradi. Muallif Rehananing kechinmalarini quyidagicha ifodalaydi:

*"Her love for him was a wound, tender yet unhealed, carried in silence."* ["Uning unga bo'lgan sevgisi yaraga o'xshardi, nozik, ammo tuzalmagan, sukunat ichida ko'tarilgan"]. [7.145]

Bu parcha Rehananing ichki dunyosida jarohatli muhabbat timsolini ochib beradi. Agar Navoiyda ishqiy jarohat ilohiy komillikka eltuvchi kuch bo'lsa, Gurnahda bu jarohat mustamlakachilik davri jamiyatida ayollarning cheklangan mavqe va madaniy repressiyani ko'rsatish vositasi sifatida ishlatiladi.

Qiyosiy-tarixiy nuqtai nazardan, Rehananing ruhiy kechinmalari - ishqiy jarohat, yashirin sevgi va sukunat - Sharq mumtoz lirikasidagi motivlarga yaqin bo'lsa-da, Gurnah ularni kolonial ijtimoiy kontekstga tatbiq etib, yangi ma'nolar bilan boyitadi. Shu orqali yozuvchi Sharq va G'arb adabiy an'analarni uyg'unlashtirib, ruhiy kechinmalarni universallashgan, ammo tarixiy-madaniy jihatdan muayyan shaklda ko'rsatadi

Abdurazzoq Gurnahning "Desertion" romanida Shekspir tragediyalariga xos elementlar sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Rehana va Martin o'rtasidagi muhabbat jamiyat tomonidan tan olinmaganligi sababli ular "taqiqlangan sevgi" ruhiy kechinmasiga duch keladilar. Roman matnida shunday jumla mavjud:

*"Theirs was a love that could not be spoken aloud, for it belonged to no place in the world they lived in."* ["Ularining sevgisi baland ovozda

aytilishi mumkin emasdi, chunki u ular yashayotgan dunyoda o'z o'rniga ega emas edi"]. [7.167] Bu holat Shekspirning "Romeo va Juletta" tragediyasidagi sevgi-fojia modelini eslatadi. Shekspir asarida sevgi jamiyat qoidalari va oilaviy an'analarga qarshi qo'yilib, qahramonlarni fojia olib keladi. Gurnah esa shu modelni postkolonial jamiyat sharoitiga moslab, uni identitet inqirozi va madaniy chegaralar bilan boyitadi.

Yuqoridagilar shuni ko'rsatadi, "Desertion" romanida ruhiy kechinmalar turli shakllarda namoyon bo'ladi: sevgi va iztiroblar shaxsiy his-tuyg'ular darajasidan chiqib, jamiyat, madaniyat va tarixiy kontekst bilan uzviy bog'langan. Shu tariqa, Gurnahning psixologik tahlil uslubini o'ziga xos adabiy hodisa sifatida shakllanadi.

**Muhokama.** "Desertion" romani tahlili mobaynida postkolonial, qiyosiy — tarixiy va intertekstual yondashuvlardan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadi, Abdurazzoq Gurnahning "Desertion" romanida qahramonlarning shaxsiy istaklari va jamiyat qoidalari o'rtasidagi to'qnashuv doimiy ichki repressiyaga olib keladi. Martin Peace va Rehana o'rtasidagi munosabat bunga yorqin misol bo'la oladi. Ularning muhabbati jamiyatda erkin namoyon bo'la olmaydi, shu bois "yashirin sevgi" shaklida mavjud bo'ladi:

*"They could not walk freely together, their love was something that had to be hidden, carried like a burden."* ["Ular birga erkin yura olmasdilar, ularning sevgisi yashirilishi kerak bo'lgan, yelkalarda ko'tarilgan yuk kabi edi"]. [7.123]

Bu parcha Freydning superego nazariyasiga mos keladi: jamiyatning axloqiy bosimi insonning tabiiy istaklarini ong ostiga suradi va natijada ruhiy beqarorlik kuchayadi. [4] Superego faqat repressiya emas, balki ichki aybdorlik va qo'rquvni ham keltirib chiqaradi, bu esa qahramonlarning muhabbatni sukunatda yashirishi va o'zini jamiyat qarshisida "begona" deb his qilishida ifodalanadi. Shu bilan birga, bu repressiya oddiy axloqiy qoidalaridan tashqari mustamlakachilik merosidan ham oziqlanadi: jamiyatning "superego"si kolonial tuzum shakllantirgan me'yorlar bilan belgilanadi. Demak, Gurnah qahramonlarining ruhiy kechinmalari individual repressiya bilan bir qatorda tarixiy-madaniy bosimning ham ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Adabiy jihatdan bu tasvir Shekspir tragediyalaridagi jamiyat va muhabbat to'qnashuvi hamda Dostoyevskiy romanlaridagi ichki aybdorlik hissi bilan uyg'unlashib, Gurnahning psixologik tahlil uslubini yanada murakkablashtiradi.

Qiyosiy — tarixiy tahlilimiz natijalari shuni ko'rsatadi, asarda ishlatilayotgan ruhiy kechinma turi — ishqiy jarohat. Gurnahning romanidagi ishqiy jarohat mustamlakachilik va jamiyat bosimi sababli yuzaga kelgan ruhiy fojia. Gurnah ruhiy kechinmalarni faqat individual psixologik jarayon sifatida emas, balki adabiy an'anal va tarixiy-madaniy kontekstlar bilan uzviy bog'liq estetik hodisa sifatida tasvirlaydi. Bu uslub yozuvchining psixologik tahlilni adabiy innovatsiya darajasiga olib chiqqanini ko'rsatadi.

Abdurazzoq Gurnahning "Desertion" romanida Rehana va Martin o'rtasidagi sevgi hikoyasi Shekspirning "Romeo va Juletta" tragediyasidagi taqiqlangan sevgi modelini eslatadi. Gurnah bu klassik sevgi-fojia arxetipini o'z asariga tatbiq etar ekan, uni postkolonial kontekstda qayta talqin qiladi.

Agar "Desertion" romanini Shekspir an'anasi bilan bog'laydigan bo'lsak, Shekspirda sevgi jamiyat va oila qoidalarga qarshi qo'yiladi. Romeo va Juletta o'z muhabbatlarini ochiq himoya qila olmaydilar va jamiyat taqiqlari ularni fojiaviy taqdiridan qutqara olmaydi. Xuddi shunday, Gurnah romanida ham Rehana va Martin o'z muhabbatlarini erkin ifoda eta olmaydilar:

*"...Theirs was a love that could not be spoken aloud, for it belonged to no place in the world they lived in."* ["Ularining sevgisi baland ovozda aytilishi mumkin emasdi, chunki u ular yashayotgan dunyoda o'z o'rniga ega emas edi"]. [7.167]

Bu jumla sevgi va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatni aniq ko'rsatishini ko'rish mumkin. Shekspirda fojia olib boradigan jarayon Gurnahda ham kuzatiladi, ammo bu yerda taqdirga emas, balki kolonial ijtimoiy tuzumga alohida urg'u beriladi.

Postkolonial kontekstdagi taqiqlangan sevgi "Desertion" nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, Gurnah taqiqlangan sevgi motivini faqat shaxsiy muhabbat doirasida qoldirmaganligini va uni kengroq — mustamlakachilik merosi va identitet inqirozi bilan bog'laganligini guvohi bo'lamiz. Rehananing muhabbati "yashirin" bo'lishi, aslida, kolonial jamiyatdagi irqiy va ijtimoiy tafovutlarni ham ochib beradi. Bu jihatdan "taqiqlangan sevgi" — postkolonial jamiyatning madaniy chegaralari va irqiy to'siqlari timsoliga aylanadi.

Taqiqlangan sevgi ruhiy kechinma turi sifatida tahlil qilinsa, bu motiv adabiy-estetik jihatdan qahramonlarda: qo'rquv, ayb hissi, ichki iztirob kabi ruhiy kechinmalarni uyg'otadi. Sevgi erkin emas, balki sukunat va yashirinlik orqali kechadi. Natijada, Rehana va Martin sevgisi nafaqat shaxsiy fojia, balki jamiyatning axloqiy taqiqlarini fosh etuvchi estetik vositaga aylanadi. Shekspirda taqiqlangan sevgi oila va jamiyat an'analari bilan bog'langan. Gurnahda esa taqiqlangan sevgi postkolonial jamiyatning irqiy, madaniy va ijtimoiy chegaralari orqali shakllangan. Shu tariqa,

Gurnah intertekstual yondashuv orqali Shekspir tragediyalaridan meros bo'lgan "taqiqlangan sevgi" modelini o'z asariga olib kiradi va uni zamonaviy tarixiy-madaniy kontekstda qayta ma'nolaydi.

"Desertion" romanidagi intertekstual tahlil shuni ko'rsatadiki, Gurnah Shekspir tragediyalaridan meros qolgan fojiaiy sevgi modelini yangi tarixiy kontekstda qayta ishlaydi. Rehana va Martinning muhabbati shaxsiy fojidan tashqari, postkolonial jamiyatdagi ijtimoiy taqiqlarni fosh etuvchi badiiy vosita sifatida talqin qilinadi. Bu jihat yozuvchining ruhiy kechinmalarni tasvirlashdagi innovatsion uslubini yaqqol ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot Abdurazzoq Gurnahning "Desertion" va "Gravel Heart" romanlarida ruhiy kechinmalar tasviri ko'p qirrali estetik va nazariy yondashuvlar orqali amalga oshirilganini ko'rsatadi. Qahramonlarning shaxsiy iztiroblari individual darajada ko'rinsa-da, ular ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstlar bilan uzviy bog'langan.

Psixoaanalitik yondashuv. Gurnah qahramonlarida Freyding psixoaanalitik nazariyasi bilan uyg'unlashgan holatlarni ko'ramiz. Masalan, Rehana va Martin o'rtasidagi muhabbat jamiyat tomonidan tan olinmaganligi sababli "yashirin" bo'lishga majbur. Bu jarayon Freyding superego konsepsiyasiga mos keladi: jamiyatning axloqiy bosimi inson istaklarini ong ostiga suradi va natijada repressiya hamda ruhiy beqarorlik yuzaga keladi. Shuningdek, bu bosim qahramonlarda ichki ayb hissini ham shakllantiradi. Demak, Gurnah qahramonlari ruhiy kechinmalari orqali individual istak va jamiyat taqiqlari o'rtasidagi keskin ziddiyatni ifodalaydi.

Qiyosiy-tarixiy yondashuv. Rehananing sevgisi Sharq mumtoz lirikasidagi "ishqiy jarohat" motivi bilan qiyoslash imkonini beradi. Alisher Navoiy g'azallarida sevgi ko'pincha inson qalbini jarohatlaydigan, lekin uni ilohiy haqiqatga yetaklaydigan ruhiy iztirob sifatida talqin qilingan. [7] Gurnah esa bu motivni yangicha talqin qiladi: Rehananing muhabbati jarohat bo'lsa-da, u ilohiy emas, balki mustamlakachilik sharoitidagi ijtimoiy bosim va ayolning jamiyatda cheklangan mavqei bilan bog'liq. Shunday qilib, Gurnah Sharqiy an'analarni qayta ishlash orqali yangi postkolonial badiiy ma'no yaratadi.

Intertekstual yondashuv. Gurnah romanida Shekspir tragediyalariga, ayniqsa "Romeo va Juletta"ga intertekstual ishoralar mavjud. Rehana va Martinning muhabbati jamiyat tomonidan qabul qilinmagani sababli ular fojiaiy taqdir sari yetaklanadi. Bu holat Shekspir asarlaridagi taqiqlangan sevgi modeliga o'xshash, biroq farqli jihati shundaki, Gurnah uni postkolonial kontekstda qayta talqin qiladi: muhabbat endi faqat oila va jamiyat qoidalar bilan emas, balki identitet inqirozi va madaniy chegaralar bilan bog'liqdir [2.159]. Demak, yozuvchi Shekspirning universal fojiaiy sevgi konsepsiyasini zamonaviy ijtimoiy muhitga tatbiq etib, uni boyitadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gurnahh, A. Gravel Heart. London: Bloomsbury, 2017.
2. Gurnahh, A. Desertion. London: Bloomsbury, 2005.
3. Freud, S. The Interpretation of Dreams.- London: Hogarth Press, 1900.
4. Jung, C. G. Aion: Researches into the Phenomenology of the Self. Collected Works, Vol. 9, Part II. Princeton: Princeton University Press. (1959).
5. Freud, Sigmund. The Ego and the Id. London: Hogarth Press, 1923.
6. Alisher Navoiy. *Devon* (g'azallaridan). Toshkent: Fan, 1983.

Sharq va G'arb uyg'unligi. Gurnah ijodida Sharq adabiyotidagi tasavvufiy iztiroblar va G'arb adabiyotidagi psixologik realizm birlashadi. Bu uyg'unlik qahramonlarning ruhiy kechinmalarini yanada universallashtiradi. Rehananing sukunatdagi iztiroblari Navoiy lirikasini eslatadi, Martin va Rehana muhabbatining fojiaiy taqdiri Shekspir an'analari bilan uyg'unlashadi. Shu tarzda, yozuvchi ruhiy kechinmalarni turli madaniy manbalardan oziqlangan holda estetik sintez darajasiga olib chiqadi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, Gurnah asarlarida ruhiy kechinmalar uch darajada talqin qilinadi: individual (psixoaanalitik repressiya va ayb hissi), madaniy-tarixiy (Sharqiy iztirob motivi bilan qiyos), intertekstual (Shekspir tragediyalaridan olingan fojiaiy model). Bu ko'p qatlamli talqin yozuvchining psixologik tahlil uslubini adabiyotda o'ziga xos hodisaga aylantiradi va uni postkolonial adabiy jarayonning muhim nazariy asoslaridan biriga qo'yadi.

**Xulosa.** Xulosa o'rinda shuni aytish zarurki, Gurnahning "Desertion" va "Gravel Heart" romanlari ruhiy kechinmalarni tasvirlashda Sharqiy va G'arbiy adabiy an'analarni sintez qilgan holda postkolonial adabiyotga yangi ilmiy – estetik yangilik olib kirgan. Xususan, tahlil natijasida Gurnahning qahramonlarida repressiyalangan istaklar nafaqat individual darajada, balki kolonial (mustamlaka) jamiyatlari shakllantirgan "superego" ta'siri ostida ko'rib chiqilishi psixoaanalitik yangilik sifatida aniqlandi. Bu yondashuv klassik Freyding konsepsiyasini postkolonial kontekstga tatbiq etish orqali yangicha ilmiy tahlil imkonini berishi mumkin.

Sharq mumtoz lirikasidagi "ishqiy jarohat" motivi Gurnah ijodida diniy-ilohiy ma'nodan ijtimoiy-ma'naviy bosimga o'tishi esa Sharqiy an'analarni yangi tarixiy kontekstda qayta talqin qilishning o'ziga xos namunasi bo'lib, Gurnahni Sharq va G'arb adabiyoti o'rtasida "ko'prik adib" sifatida ko'rsatilishi esa qiyosiy tarixiy yangilik sifatida baholanishi mumkin. Intertekstual yangilik Shekspir tragediyalaridagi taqiqlangan sevgi modeli Gurnah romanida identitet inqirozi va madaniy chegaralar bilan boyitilgan holda universallashtirishda o'z aksini topkanligiga guvoh bo'lamiz. Demak, Gurnah intertekstual an'anani postkolonial jarayonlarga moslashtirib, o'ziga xos "postkolonial psixologizm" tushunchasini shakllantirgan.

Mazkur tadqiqotimizda Gurnah asarlaridagi ruhiy kechinmalarni talqin qilishda Sharqiy iztirob motivlari, G'arbiy psixologik realizm va postkolonial nazariya birlashtirilgan holda yangi integrativ yondashuvga tayandik. Bu yondashuv adabiyotshunoslikda "postkolonial psixologizm" deb atash mumkin bo'lgan yangi ilmiy konsepsiyani ilgari suradi.

7. Brazzelli, M. Forbidden Love and Colonial Contexts in Abdulrazzak Gurnah's Desertion. Journal of Postcolonial Writing, 47(2), (2011). p.159
8. Santesso, E. (2013). Disorientation: Muslim Identity in Contemporary Anglophone Literature. New York: Palgrave Macmillan.
9. Quayson, A. (2007). Postcolonialism: Theory, Practice, or Process. Cambridge: Polity Press.
10. Cooke, M. (2011). Narratives of Islam in English Literature. Cambridge: Cambridge University Press.